

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 18 - sentabr

211-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 73-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 31-iyuldagi Bildirgisi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 7-sentabrdagi RS/12-02/3617-sonli xulosasini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-maydagi "2023-yilda hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini tashkil etish va o'tkazish choratadbirlari to'g'risida"gi 195-son qaroriga asosan, hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasini yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash maqsadida **jami 54 390 000** (ellik to'rt million uch yuz ming to'qson) **so'm** mablag'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zahira jamg'armasi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikka muvofiq ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda belgilangan tartibda va asoslarda maqsadli yo'naltirilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Utambetov)dan yuqorida ko'rsatilgan ishlarga ajratilgan mablag'ning qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari A.Uteuliev hamda Vazirlar Kengashi Raisining yordamchisi N.Yeshanovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov